Zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida pedagogik ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifa – bo'lajak o'qituvchilarni tezkor jamiyatda professional faoliyat yuritishga tayyorlash hamda ularning raqamli kompetentligini rivojlantirish va yuksaltirishdan iboratdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "...raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarsiz hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Zamonaviy bilimga ega bo'lmagan kadrlar bilan esa buni amalga oshirish qiyin" ^[1]. Ushbu strategik maqsadni amalga oshirish yo'lida qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ^[2] oliy pedagogik ta'lim tizimi oldiga o'qituvchilarning nafaqat AKT savodxonligini, balki murakkab raqamli muhitda ijodiy va tanqidiy yondashuv asosida dars o'tish malakasini shakllantirish talabini qo'yimoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilma sezilarli darajada yangilangan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini metodik jihatdan tizimli ravishda rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash hamon dolzarb pedagogik muammo sifatida qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bir qancha olimlar tomonidan tahlil qilingan. Yevropalik olimlar Romanovski, Grinyova, Zhernovnykova, Shtefan va Fazan o'z maqolalarida bo'lajak matematika o'qituvchilarining raqamli kompetentligining tuzilishi, mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini belgilaydilar ^[3]. Spante, Sofkova, Lundin va Algers o'z tadqiqotlarida o'qituvchilarning raqamli kompetentligini aniqlash va baholash mezonlarini umumlashtiradilar ^[4]. Fursykova T., Habelko O., Chernii V. tadqiqotida esa raqamli kompetentlik raqamli madaniyat darajasi sifatida baholanadi. U motivatsion (raqamli texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish motivatsiyasi, jamoaviy hamkorlikka yo'naltirilganlik, axborot texnologiyalari orqali muvaffaqiyatga erishish istagi), kognitiv (raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llash bo'yicha bilimlar darajasi), faoliyat (raqamli texnologiyalarni ta'lim faoliyatini tashkil etish va kasbiy muammolarni hal etish uchun zarur ko'nikma va malakalar) hamda shaxsiy (raqamli jamiyatda o'z-o'zini o'qitish va kasbiy rivojlanish qobiliyati) komponentlardan iborat ^[5].

Yevropalik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida quyidagi shartlar asosida ko'rib chiqiladi: ta'lim muhitining raqamlashtirilishi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va talabalar bilan hamkorlik. O'qituvchilarning yuqori darajadagi raqamli kompetentligiga ega bo'lishi sifatli o'quv jarayonini ta'minlaydi hamda talabalarni samarali jalb etadi. Bolgariya maktab o'qituvchilari orasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning 84,8% raqamli texnologiyalardan kundalik ta'lim faoliyatida foydalanadi ^[6]. Bu esa o'quv kontentini yaratish, talabalar ishtirokini rag'batlantirish va baholash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kompetensiyalar orasida mualliflik elektron resurslarini ishlab chiqish (prezentatsiyalar, testlar, audio va video materiallar) hamda onlayn muhitlarda ishlash ko'nikmalari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikada ko'p qirrali tarzda tahlil qilinmoqda. Xususan, I. Agibova va

T. Kulikova kengaytirilgan reallik (XR) vositalarini qo'llash orqali jarayonni to'rt asosiy qismga (faol rivojlanish, mentoring va h.k.) ajratib, besh ta'sir etuvchi omilni tizimlashtirgan bo'lsa ^[7], S. Tkachov va N. Tkachova shaxsiylashtirilgan o'quv muhiti hamda inklyuzivlikni ta'minlashda elektron simulyatorlar va multimedia tizimlarining samaradorligini, shu bilan birga kompetensiya darajasidagi demografik farqlarni qayd etadilar ^[8].

L. Tomczyk o'quv dasturlarini raqamli kontent yaratish, kiberxavfsizlik va interaktivlikka yo'naltirilgan holda isloh qilish zarurligini ta'kidlaydi ^[9].

OECD xalqaro tahlillari TPACK va DigComp ramkalari barqaror ta'limning asosi ekanligini tasdiqlaydi ^[10].

Tadqiqotchi T. Huong va uning hamkasblari o'qituvchilarning sun'iy intellekt (AI) bilan ishlashdagi kamchiliklarini algoritmallashtirish orqali bartaraf etishni taklif qilsa ^[11], I. Skakun va M. Peters raqamli kompetentlikni pedagogik tayyorgarlikning mustaqil hamda fundamental tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar ^[12] ^[13].

A. Rakisheva va A. Witt UNESCO hamda ISTE kabi xalqaro ramkalar aralash ta'lim kelajagi uchun muhimligini ko'rsatib o'tadi ^[14], A. Örtengren masofaviy ta'limda muammo hal etishga yo'naltirilgan kasbiy raqamli kompetensiya (PDC) samaradorligini isbotlaydi ^[15].

Nihoyat, E. Galimullina va Ljubimova tizimli rivojlanishda huquqiy etika, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda individual xususiyatlar uyg'unligini strategik omil deb hisoblaydilar ^[16].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligida tadqiq etilmoqda. Xususan, L.R. Djurayeva raqamli muhitda motivatsion va kognitiv komponentlarni kuchaytirishda tanqidiy fikrlashning markaziy o'rni hamda resurslarni baholashdagi ahamiyatini asoslab bergan bo'lsa ^[17], D.H. Fayziyeva media va raqamli kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi orqali o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda inklyuziv hamda shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni taklif etadi ^[18].



Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchilari, jumladan D. Rasulova, ta'limni individuallashtirishda loyiha asosidagi o'qitish, gamifikatsiya va raqamli platformalarning samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlagan bo'lsalar, sohadagi umumiy tahlillar kasbiy, texnik va metodik ko'nikmalarni raqamli didaktika, xavfsizlik hamda etika tamoyillari asosida integratsiyalash zarurligini ko'rsatib o'tadi ^[19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqa manbalarda raqamli kompetentlik shaxsiy shakllanish sifati sifatida ta'riflanadi, u tegishli motivlar, qadriyatlar, munosabatlar, turli raqamli resurslar, vositalar va texnologiyalar haqidagi bilimlarni birlashtiradi, shuningdek, ularni pedagogik faoliyatda tanqidiy tahlil va baholash asosida qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu ta'rif Yevropa raqamli kompetentlik ramkalari (DigCompEdu) asosida shakllangan bo'lib, kasbiy ishtirok, raqamli resurslar bilan ishlash, o'qitish va o'rganish, natijalarni baholash, talabalar imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim sub'ektlarida raqamli kompetentlikni rivojlantirish kabi komponentlarni qamrab oladi ^[6]. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishdagi dolzarb muammo – bu nazariy bilimlar va real pedagogik amaliyot o'rtasidagi uzilishdir. Quyida ushbu pedagogik muammolarga to'xtalamiz. Nazariya va amaliyotning uzluksizligi. Raqamli kompetentlik kurslari alohida fan sifatida o'qitiladi, boshqa fanlar bilan integratsiyasi yo'lga qo'yilmagan. Natijada axborot texnologiyalari fanlari pedagogika fanlari bilan bog'lanmaydi, o'qituvchilar esa "texnik" va "pedagogik" bilimlarini birlashtira olmaydi.

An'anaviy yondashuvning saqlanib qolganligi. Dars o'tish tizimi an'anaviy usullarga tayanib, frontal darslar ustuvorligini saqlaydi, bu esa innovatsion metodlarni qabul qilishda institutsional qarshilikni yuzaga keltiradi va nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutni kuchaytiradi.

Infratuzilma va resurslarning cheklanganligi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalar, litsenziyalangan dasturiy ta'minot, barqaror internet va raqamli laboratoriyalar yetishmasligi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda amaliy tajriba orttirish imkoniyatini jiddiy cheklaydi.

Kadrlarning tayyorgarlik darajasi. 1 Dars beruvchi professor-o'qituvchilarning o'zlarining raqamli kompetentligi past bo'lishi, ayniqsa katta yoshli mutaxassislarda texnofobiyaning kuzatilishi hamda raqamli pedagogika bo'yicha kadrlarning yetishmasligi muammoni murakkablashtiradi.

O'quv dasturlarining moslashtirilmaganligi. O'quv rejalari zamonaviy talablarga mos kelmaydi, raqamli kompetentlik komponentlari aniq ko'rsatilmagan, amaliy mashg'ulotlar uchun yetarli vaqt ajratilmagan va dasturlar doimiy ravishda yangilanmaydi.

Individual yondashuvning yetishmasligi. Ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning dastlabki raqamli savodxonlik darajasi, shaxsiy ehtiyojlari va o'rganish uslublarini hisobga olmagan holda amalga oshiriladi, shaxsiy rivojlanish rejalari ishlab chiqilmaydi.

Kasbiy identifikatsiya muammosi. Bo'lajak o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni o'z kasbiy identifikatsiyasiga qanday integratsiyalashni bilmaydilar, bu "raqamli kompetentligi yuqori pedagog" va "an'anaviy pedagog" identifikatsiyalari o'rtasidagi ziddiyatga olib keladi.

Refleksiya va o'z-o'zini rivojlantirish malakasining yetishmasligi. Bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil o'rganish, o'z faoliyatini tahlil qilish va raqamli portfolioni shakllantirish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan, bu ularning doimiy o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini cheklaydi.

Jamiyatdagi stereotiplar. Ota-onalar, jamiyat va ba'zi pedagoglarning "texnologiya – bu o'yin" degan qarashi, an'anaviy usullarning ustunligiga bo'lgan ishonch hamda raqamli ta'lim samaradorligiga shubha bilan qarashlari muammoni kuchaytiradi.

Doimiy o'zgaruvchanlik muammosi. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotganligi sababli ta'lim tizimi bu o'zgarishlarga tez moslasha olmaydi, natijada texnologiyalar ta'lim mazmunidan tezroq eskiradi va o'qituvchilarni doimiy qayta tayyorlash zarurati yuzaga keladi.


Demak, aksariyat hollarda oliy o'quv yurtlarida raqamli texnologiyalar alohida "Informatika" fani sifatida o'qitiladi, biroq ularni bevosita fan metodikasiga (masalan, ona tilini raqamli o'qitishga) integratsiya qilish darajasi pastligicha qolmoqda. Talabalar raqamli vositalar bilan ishlashni ("kompetensiya") bilsalar-da, ularni darsning turli bosqichlarida o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqib, qachon va qanday samarali qo'llash mahoratini ("kompetentlik") shakllantirish uchun amaliy maydon yetishmaydi. Natijada bitiruvchi talaba zamonaviy gadjetlarni ishlata olsa-da, maktabga borganda raqamli muhitda murakkab pedagogik muammolarni hal etish, inklyuzivlikni ta'minlash va o'quvchilarning raqamli kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Demak, o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish dasturlarining samaradorligi ularning tuzilishi, amalga oshirilishi va natijalari tahliliga bog'liq. Ular axborot savodxonligi, kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish va axborot xavfsizligi kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Raqamli kompetentlik hamda o'qituvchi motivatsiyasining yaxshilanishi kuzatilgan bo'lsa-da, joriy ehtiyojlar bilan moslashuvning yetishmasligi saqlanib qolmoqda.

1 Ilg'or texnologiyalar yoki murakkab elektron qurilmalardan qo'rqish yoki yoqtirmaslik. Umuman olganda, texnologik taraqqiyotdan qo'rqish. Manba: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnofobiya>



TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda DigCompEdu kabi ramkalarga moslashish hamda konseptual, protsessual va munosabat jihatlarini hisobga olish tavsiya etiladi [20]. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun tizimli ishlab chiqilgan kompetensiyalar majmuiga asoslangan samarali ta'lim tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday kompetensiyalar majmui Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli hisoblanadi. Bu esa ta'limda raqamli kompetentlikni rivojlantirishda tizimli ravishda ishlab chiqilgan kompetensiyalar ketma-ketligi sifatida e'tirof etiladi (1-rasm).



1-rasm: Yevropa kengashi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli

Kasbiy faoliyat (Professional Engagement). O'qituvchining raqamli texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llashi:

- tashkiliy kommunikatsiya – o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan raqamli usullar orqali samarali muloqot qilish;
- kasbiy hamkorlik – bilim va tajriba almashish, pedagogik amaliyotni takomillashtirish;
- reflektiv amaliyot – o'zining raqamli pedagogik faoliyatini baholash va rivojlantirish;
- raqamli doimiy kasbiy taraqqiyot – o'z kompetensiyasini yangi raqamli manbalar orqali oshirib borish.

Raqamli resurslar (Digital Resources). Raqamli ta'lim resurslarini topish, yaratish, tahrirlash va boshqarish:

- raqamli resurslarni tanlash – pedagogik maqsadga mos materiallarni aniqlash;
- raqamli kontent yaratish va o'zgartirish – yangi yoki mavjud resurslardan foydalanib o'quv materiallarini ishlab chiqish;
- resurslarni boshqarish va himoya qilish – raqamli materiallarni tuzish, xavfsiz saqlash va ulashish.

O'qitish va o'rganish (Teaching and Learning). Raqamli vositalarni o'quv jarayonida qo'llash:

- o'qitish – raqamli vositalar yordamida ta'lim jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish;
- yo'naltirish (Guidance) – shaxsiy va guruh bilan muloqotni kuchaytirish;
- hamkorlikda o'rganish – o'quvchilarni birgalikda ishlashga rag'batlantirish;
- o'zini boshqaruvchi o'rganish – o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish va rejalashtirishiga yordam berish.



Baholash (Assessment). Raqamli texnologiyalar yordamida baholash:

- baholash strategiyalari – shakllantiruvchi va yakuniy baholash vositalaridan foydalanish;
- dalillarni tahlil qilish – raqamli ma'lumotlar orqali o'quv faoliyatini o'lchash;
- fikr-mulohaza va rejalashtirish – o'quvchilarga o'z vaqtida va maqsadga yo'naltirilgan mulohaza berish.

O'quvchini rag'batlantirish (Empowering Learners). O'quvchilarni faol ishtirokga undash:

- kirishni osonlashtirish va inklyuziya – har qanday o'quvchi uchun teng imkoniyat yaratish;
- moslashtirish va shaxsiylashtirish – individual o'quv yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- faol ishtirok – murakkab vazifalar va real dunyo jarayonlariga jalb etish.

O'quvchilarning raqamli kompetensiyasi (Facilitating Learners' Digital Competence). O'quvchilarga raqamli ko'nikmalarni o'rgatish:

- axborot va media savodxonligi – axborotni topish va tahlil qilish;
- raqamli kommunikatsiya va hamkorlik – samarali onlayn muloqot qilish;
- raqamli kontent yaratish – kontentni ishlab chiqish va mualliflik huquqiga rioya qilish;
- mas'uliyatli foydalanish – xavfsiz va ongli texnologiyalardan foydalanish;
- raqamli muammolarni hal etish – texnik muammolar yechimini topish ^[21].

DigCompEdu modelini bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimiga tatbiq etish – bu shunchaki texnik savodxonlikni oshirish emas, balki ularning pedagogik tafakkurini raqamli davr talablariga mos ravishda mutlaqo qayta shakllantirish demakdir. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda ushbu oltita kompetensiya o'zaro mantiqiy zanjir hosil qiladi va o'qituvchining shaxsiy kasbiy rivojlanishida hamda resurslarni boshqarishda poydevor vazifasini o'taydi, shuningdek, o'quvchi imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularda raqamli ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifa – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini raqamli muhit talablariga mos ravishda tashkil etish hamda ularning raqamli kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirishdan iboratdir. Davlat siyosati darajasida belgilangan strategik yo'nalishlar, xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi pedagog kadrlarning nafaqat AKT savodxonligini, balki murakkab raqamli ta'lim muhitida ijodiy, tanqidiy va reflektiv faoliyat yurita olish qobiliyatini shakllantirishni talab etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilma sezilarli darajada yaxshilangan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini metodik jihatdan integratsiyalashgan holda rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Asosiy pedagogik muammolar sifatida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish, fanlararo integratsiyaning sustligi, infratuzilma va resurslarning cheklanganligi, professor-o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga to'liq moslashtirilmaganligi hamda individual yondashuvning yetishmasligi aniqlandi.

Xalqaro tajriba tahlili, xususan, DigCompEdu modeli asosida olib borilgan yondashuvlar raqamli kompetentlikni kasbiy ishtirok, raqamli resurslar bilan ishlash, o'qitish va o'rganish, baholash, o'quvchini rag'batlantirish hamda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish kabi o'zaro bog'liq komponentlar tizimi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur model bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- raqamli kompetentlikni barcha fanlar metodikasi bilan integratsiyalash;
- amaliy mashg'ulotlar va raqamli pedagogik muhitni kengaytirish;
- refleksiya va raqamli portfolioni shakllantirish tizimini joriy etish;
- professor-o'qituvchilarning uzluksiz raqamli kasbiy rivojlanishini ta'minlash;
- individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish – bu alohida fan doirasidagi texnik ko'nikmalarni shakllantirish emas, balki pedagogik tafakkurni raqamli transformatsiya sharoitiga mos ravishda qayta qurish jarayonidir. Mazkur yondashuv kelgusida raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yurita oladigan, innovatsion fikrlaydigan va o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantira oladigan pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [Manba: president.uz] <https://president.uz/oz/lists/view/3848>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. – QHMMB, 06/20/6079/1349-son, 06.10.2020-y.
3. O. Romanovskiy, V. Grineva, O. Zhernovnykova, L. Shtefan, & V. Fazan, "Formation of future mathematics teachers' digital competence: ascertain stage". *Information Technologies and Learning Tools*, 65(3), 184–200, 2018. <https://doi.org/10.33407/itlt.v65i3.2412>
4. M. Spante, H. Sofkova, M. Lundin, & A. Algers, "Digital competence and digital literacy in higher education research: Systematic review of concept use". *Cogent Education*, 5(1), 2018. <https://doi.org/10.1080/2331186X.2018.1519143>
5. Fursykova, T., Habelko, O., & Chernii, V. (2022). The Development of Digital Competence of Future Teachers in the Process of Distance Learning. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (IJET)*, 17(10), 85–98.
6. Kiryakova, G., & Kozhuharova, D. (2024). The Digital Competences Necessary for the Successful Pedagogical Practice of Teachers in the Digital Age. *Education Sciences*, 14(5), 507. <https://doi.org/10.3390/educsci14050507>
7. Agibova, I. M., Kulikova, T. A., Poddubnaya, N. A., & Fedina, O. V. (2023). Development of Digital Competence of a Future Teacher in the Context of Informatization and Digitalization of Modern Teacher Education. *Proceedings IFTE-2020*, 0013–0026, 13–26.
8. Tkachov, S., Tkachova, N., & Shcheblykina, T. (2023). Developing Digital Competence of Future Teachers in the Modern Digital Learning Space. *Educational Challenges*, 28(1), 149–160. <https://doi.org/10.34142/2709-7986.2023.28.1.12>
9. Tomczyk, Ł. (2024). Digital competence among pre-service teachers: A global perspective on curriculum change as viewed by experts from 33 countries. *Evaluation and Program Planning*, 105, Article 102449. <https://doi.org/10.1016/j.evalprogplan.2024.102449>
10. OECD (2023). *OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/c74f03de-en>
11. Huong, T. T., Vy, P. N. T., Minh, L. H., & Linh, N. T. (2025). Primary School Teacher Educators' Digital Competence: Perceived Confidence and Continuing Needs for 21st-Century Teaching. *Educational Process: International Journal*, 15, e2025147. <https://doi.org/10.22521/edupij.2025.15.147>
12. Skakun, I. (2021). Digital Competencies of the Teacher of the Future. *Futurity Education*, 1(2), 46–56. <https://doi.org/10.57125/FED/2022.10.11.18>
13. Peters, M. (2022). Teacher digital competence development in higher education: Overview of systematic reviews. *Australasian Journal of Educational Technology*, 38(3), 122–139.
14. Rakisheva, A., & Witt, A. (2023). Digital competence frameworks in teacher education: A literature review. *Issues and Trends in Learning Technologies*, 11(1). <https://doi.org/10.2458/itlt.5205>
15. Örtengren, A. (2024). Pathways to professional digital competence to teach for digital citizenship: Social science teacher education in flux. *Teachers and Teaching*, 30(4), 526–544. <https://doi.org/10.1080/13540602.2024.2342860>
16. Galimullina, E. Z., Ljubimova, E. M., Mukhametshina, D. R., & Sozontova, E. A. (2022). Analysis of requirements for the digital competence of a future teacher. *European Journal of Educational Research*, 11(3), 1729–1745. <https://doi.org/10.12973/eu-jer.11.3.1729>
17. Djurayeva, L. R. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari.
18. Fayziyeva, D. H. (2024). Bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.
19. Rasulova, D. R. va boshq. (2023). Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish.
20. Gallego Joya, L., Merchán Merchán, M. A., & López Barrera, E. A. (2025). Development and strengthening of teachers' digital competence: Systematic review. *Contemporary Educational Technology*, 17(1), ep555. <https://doi.org/10.30935/cedtech/15744>
21. DigCompEdu. https://joint-research-centre.ec.europa.eu/digcompedu/digcompedu-framework_en

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.